**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ **BD**-60520100
60520100-1.18
2024 yil “10” 03

**“TASDIQLAYMAN”**
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__” _____

# UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA
# FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta’lim sohasi:** | 520 000 – Atrof muhit |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik |

| Fan/modul kodi UTG1504 | O‘quv yili 2026-2027 | Semestr V | ECTS – Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta’lim tili O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fan nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Umumiy (soat) |
| | Umumiy tabiiy geografiya | 54 | 66 | 120 |

| Fanning maqsadi (FM) | |
|---|---|
| | **I. FANNING MAZMUNI** |
| FM1 | **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo‘linishi, tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma’lumotlar va ularda ro‘y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat.<br>**Fanning vazifasi** - talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, ularning mohiyati, geografik qobiqning tuzilishi, tarkibiy qismlari, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera hamda ularning xususiyatlari, geografik qobiqning hududiy tabaqalanishi, inson va tabiat munosabatlarining geografik asoslarini o‘rgatish va ularda tabiatdan foydalanishda geografik bilimlarni qo‘llay olish bo‘yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.. |

| Fan mazmuni | |
|---|---|
| **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** | |
| **Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)** | |
| M1 | **Kirish. “Umumiy tabiiy geografiya” ning o‘rganish obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, geografik fanlar sistemasidagi o‘rni**<br>Geografiya fanining obe’kti va predmeti, zamonaviy geografik fanlar sistemasi. Integral va amaliy geografik fanlar. “Umumiy tabiiy geografiya” fanining tadqiqot obyekti, predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, geografik fanlar sistemasidagi o‘rni. O‘quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi. Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi. |
| M2 | **Olam. Quyosh sistemasi, sayyoralar, asteroidlar, kometalar, meteor jismlar**<br>Koinot haqida asosiy tushunchalar: Olam, Metagalaktika, Galaktika, yulduzlar, Quyosh sistemasi, Quyosh, sayyoralar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar, kometalar. Yer va uning asosiy o‘lchamlari: og‘irligi, shakli, diametri va radiusi. Yerga fazoning ta’siri. Magnitosfera. Yerning shakli va harakatlari. Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari. M.Milankovich nazariyasi. Yerning shakliga uning o‘z o‘qi atrofida aylanishining ta’siri |
| M3 | **Geografik qobiq**<br>Geografik qobiqning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari: moddalarning xilma-xilligi, nomuvozanatligi, tarkibining doimo murakkablashib borishi va h.k. |



| | |
|---|---|
| | Geografik qobiqdagi moddalarning kimyoviy va fizik xossalari. Geografik qobiqning tarkibiy qismlari. |
| M4 | **Geografik qobiqning vertikal tuzilishi. Litosfera va yer po‘sti**<br>Litosfera. Yerning ichki tuzilishi: yer po‘sti, mantiya va yadro. Yer po‘sti. Yer po‘stining tarkibi. Yer po‘sti tuzilishining asosiy xususiyatlari. Yer po‘stini hosil qilgan tog‘ jinslari, ularning turlari. |
| M5 | **Geoxronologik jadval, asosiy tog‘ hosil bo‘lish bosqichlari**<br>Geoxronologik jadval. Umumsayyoraviy relyef shakllarining joylanishi. Platformalar, geosinklinallar, qalqonlar, plitalar. Tektonik harakatlar, uning turlari. Zilzila va yulqon, ularning tarqalishi, vulqon jarayonlarining Yer iqlimiga ta’siri. Litosfera plitalari. Materiklarning gorizontal harakati haqidagi nazariya. |
| M6 | **Gidrosfera. Uning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani**<br>Gidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Suvning Yer yuzida taqsimlanishi. Suvning aylanma harakati, katta va kichik aylanma harakatlar. “Okean-atmosfera-quruqlik” sistemasi. Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari: dengizlar, bo‘g‘izlar, qo‘ltiqlar. Okean suvining xususiyatlari: harorati, sho‘rligi, zichligi, tiniqligi, bosimi. Suvning harakatlari: to‘lqinlar, oqimlar va qalqish. Okean tubi relyefi. Suvosti tog‘ tizmalari, soylik (kotlovina) lar, suvosti cho‘kmalari (novlar). Batigrafik egri chiziq. |
| M7 | **Quruqlikdagi suvlar. Ko‘llar, ularning turlari va xususiyatlari, tabiatdagi roli**<br>Quruqlikdagi suvlar. Yer usti suvlari: daryolar, ko‘llar, botqoqliklar, muzliklar va muzloqlar. Daryolar va ularning geografik ishi. Vaqtincha oqar suvlar va ularning geografik ishi. Ko‘llar va ularning turlari, hosil bo‘lishi va tarqalishi. Ko`llarning tabiatdagi o`rni va ahamiyati. |
| M8 | **Muzliklar, muzloqlar, to‘rtlamchi davr muz bosishlari. Yer osti suvlari**<br>Xionosfera. Qor chizig‘i. Muzliklar va ularning ishi. Qoplama muzliklar va ular hosil qilgan relyef shakllari. Muzloqlar. Botqoqliklar. Yer osti suvlari, ularning turlari va tarqalishi. Mineral va termal suvlar. Artezian suvlari. |
| M9 | **Atmosfera, uning tarkibi va tuzilishi. Havo bosimi, bosim mintaqlari va markazlari**<br>Atmosfera tushunchasi. Atmosferaning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera, ozon qatlami. Quyosh radiatsiyasining kelishi va taqsimlanishi. Havo harorati va uning dinamikasi.<br>Atmosferaning Dunyo okeani bilan umumiy sirkulyatsiyasi. Havo bosimi. Barik relyef. Past va yuqori bosim markazlari. Havo bosimini o`lchash. |
| M10 | **Havo massalari, siklonlar va antisiklonlar. Shamollar va ularning geografik ishi**<br>Havo massalari va frontlari. Havo massalarining harakat turlari. Siklon va antisiklon tushunchalari.<br>Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar. Atmosferadagi suvlar. Nisbiy va mutloq namlik. Bulutlar, ularning turlari. Yog‘inlar – yomg‘ir, qor, do‘l, shudring, tuman. Yer sharida harorat va yog‘inning taqsimlanishi. Iqlimning tabiat komponentlariga va vegetatsiya davriga ta’siri. |
| M11 | **Ob-havo va uning elementlari. Iqlim, uni hosil qiluvchi omillar va iqlim mintaqalari** |

| | |
|---|---|
| | Ob-havo va iqlim. Ob-havo va uning elementlari. O'rganish usullari. Ob-havoni prognozlash.<br>Iqlim. Yer shari iqlimi. Iqlim hosil qiluvchi omillar va jarayonlar. Iqlimning vertikal va gorizontal o'zgarishlari. Kontinental, dengiz, oraliq va musson iqlimlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalari. Iqlimdagi o'zgarishlar, uning sabablari va oqibatlari. O'zbekiston iqlimidagi o'zgarishlar. Iqlim o'zgarishini uzoq muddatli prognoz qilish. |
| **M12** | **Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi. Biosfera**<br>Biosfera. Hayotning tarqalish chegerasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi. "Ekologiya" fani haqida tushuncha. Ekologiya, ekologik holat (vaziyat), tabiatni muhofaza qilish tushunchalari. Ekologik omillar (abiotik va biotik). Ekotizim. Biotsenoz, fitotsenoz, zootsenoz, biogeotsenoz. Okeanlarning organik dunyosi (plankton, nekton, bentos). Biomassa. |
| **M13** | **Nurash va uning ahamiyati, turoqlar, pedosfera. Tuproqlarning asosiy tiplari va tarqalishi**<br>Nurash va nurash qobig'i. Pedosfera. Tuproq qatlami va uning inson hayotida tutgan o'rni. V.V.Dokuchaevning tuproq haqidagi ta'limoti -tabiatshunoslik fanlari sintezi mahsuli ekanligi.<br>Tuproqlarning turlari, ularning Yer yuzi bo'yicha tarqalishi. Tuproq hosil qiluvchi omillar. Tuproq profili (kesmasi). Tuproqning umumiy fizik xossalari. Tuproqlarning inson tomonidan o'zgartirilishi. Tuproq eroziyasi. O'zbekiston tuproqlari va ulardan foydalanishning ekologik jihatlari |
| **M14** | **O'simliklar va hayvonot dunyosi**<br>O'simliklar dunyosi, ularning asosiy turlari. O'simliklarning tekislik va balandliklar bo'yicha tarqalishi. Hayvonot dunyosi, ularning yer yuzida tarqalishi. Hayvonot dunyosi va tabiiy muhit. |
| **M15** | **Geografik landshaft**<br>Landshaft haqidagi tushunchalar. Landshaft komponentlari va landshaft hosil qiluvchi omillar. Landshaftlarning morfologik qismlari. |
| | **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**<br>**Amaliy mashg'ulotlar (A)uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.** |
| **A1** | Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi. |
| **A2** | Platformalar, geosinklinallar, plitalar va qalqonlar, plitalar harakati, rift zonalar. |
| **A3** | Gradus to'ri, uning elementlari. Geografik koordinatalarni topish. |
| **A4** | Geoxronologik jadval va uning tahlili. |
| **A5** | Yer po'stining tuzilishi xaritasini ishlash va tahlil qilish |
| **A6** | Dunyoning tabiiy xaritasini ishlash va uning tavsifi. |
| **A7** | Gidrografik obyektlar nomlari ro'yxatini tuzish va ularni o'rganish. |
| **A8** | Ob-havo elementlarini o'lchash asboblari bilan tanishish. |
| **A9** | Dunyoning iqlim xaritasiini yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish |
| **A10** | Dunyoning iqlim mintaqalari xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish. |
| **A11** | Yer yuzida tuproqlarning tarqalishi xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish |
| **A12** | Geografik mintaqalar va zonalar xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish |
| **A13** | Geografik mintaqalar va zonalar xaritasini tahlil qilish va topshirish |
| **A14** | Har bir tabiat zonasi uchun xos o'simlik va hayvonot dunyosi dunyosi jadvalini ishlash. |
| **A15** | O'simliklar va hayvonot dunyosi jadvallarini topshirish |
| **IV. Ushbu fanda laboratoriya mashg'ulotlari olib borish ko'zda tutilmagan** | |



## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular **"Umumiy tabiiy geografiya"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari |
|---|---|
| 1. | Geografiyaning rivojlanish bosqichlari. |
| 2. | Olam, Galaktika, Quyosh sistemasi. |
| 3. | Yerning shakli va harakatlari. |
| 4. | Yerning o'z o'qi atrofida aylanishining geografik oqibatlari. |
| 5. | Yerning Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari. |
| 6. | Geografik qobiq, uning tarkibi va tuzilishi. |
| 7. | Litosfera va uning tuzilishi. |
| 8. | Yerning ichki tuzilishi. |
| 9. | Atmosfera va uning tuzilishi. |
| 10. | Havo massalari va frontlari. |
| 11. | Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar. |
| 12. | Atmosferadagi suvlar. Nisbiy va mutloq namlik. |
| 13. | Gidrosfera va uning tarkibiy qismlari. |
| 14. | Ko'llar va ularning turlari. |
| 15. | Biosfera va uning tuzilishi. |
| 16. | Geografik qobiqning to'rtlamchi davrda rivojlanishi. |

**"Umumiy tabiiy geografiya"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, tabiat komponentlari va landshaftlarni xo'jalik maqsadlarida baholay oladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>**"Umumiy tabiiy geografiya"** fanidan talabalar, koinot, Quyosh sistemasi, Yer va uning Quyosh sistemasidagi o'rni; geografik qobiq, litosfera, gidrosfera va uning tarkibiy qismlari, atmosfera, biosfera, geografik muhit va inson munosabatlarining geografik asoslariga oid nazariy qarashlar haqida ***tasavvurga ega bo'lishi kerak;***<br>• Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi hamda ularning geografik oqibatlarini tajribada ko'rsatib bera olish; relyef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relyefning asosiy shakllarini ajratish; ob-havo va uning elementlarini o'lchash asboblaridan foydalana olish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha xulosalar olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***<br>• Geografik qobiq va tabiat komponentlari, ular orasidagi aloqadorliklarni tadqiq etish; tabiat komponentlari va landshaftlarni xo'jalik maqsadlarida baholay oladi hamda ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha xulosalar chiqara olish; relyef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relyefning asosiy shakllarini ajratish, ob-havo va uning elementlarini o'lchash asboblaridan foydalana olish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha xulosalar chiqarish malakasiga ***ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• amaliy mashg'ulotlarni bajarish va xulosalash;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |

| | |
|---|---|
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |

**6. ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Abdunazarov O’.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibragimova R.A. Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiya. Darslik. -Toshkent, 2019.
2. Abdunazarov O’.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibragimova R.A. Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiya. Darslik. -Toshkent, 2020.

**QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

3. Ibragimova R.A. Yer bilimi asoslaridan amaliy mashg‘ulotlar. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2018. – 56 b.
4. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017. – 186 b.
5. Vahobov H. va boshq. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –T.: “Bilim”, 2005.
6. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik.–T.: “Turon zamin ziyo”, 2016.
7. Зокиров Ш.С. Амалий ва антропоген ландшафтшунослик. –Т.: Университет, 1999.
8. Николаев В.А. Ландшафтоведение. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 2006

**AXBOROT MANBALARI:**

9. www.gov.uz
10. www.lex.uz
11. www.nature.web.ru
12. www.globalscience.ru
13. www.lomonosov-fund.ru
14. www.elibr.narod.ru/Books-pdf.htm
15. www.nkj.ru

| | |
|---|---|
| . | Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| . | **Fan/modul uchun mas’ullar**:<br>**Xaydarov S.A** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Geologiya va gidrometeorologiya” kafedrasi dotsenti |
| . | **Taqrizchilar:**<br>**Meliyev B.A** – “Geologiya va gidrometeorologiya” kafedrasi mudiri PhD., dotsent(tel:(99)7767725).<br>**Usmonov M.** – Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi muduri . |

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:
Rais – **Xaydarov S.A**

**Kafedra mudiri:** **B.A.Meliyev**

**Fakultet dekani:** **S.B.Abbosov**

**Sh. Rashidov nomidagi**
**SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha**
**1-prorektor:** **A.S. Soleev**



**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti “Geologiya va gidrometeorologiya” kafedrasi dotsenti, PhD S.A. Xaydarov tomonidan 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari uchun “Umumiy tabiiy geografiya” fanidan o`quv dasturlarga**

**TAQRIZ**

Mazkur o`quv dastur 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta’lim yo‘nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asos qilib olingan. “**Umumiy tabiiy geografiya**” o‘quv kursi o‘quv jarayonida meteorologiya va iqlimshunoslik doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo‘llari bo‘yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta`limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o‘quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar keltirilgan. “O‘rta Osiyo sinoptik jarayonlari” fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta’lim texnologiyalari va metodlari hamda kredit miqdori, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan. Dasturning oxirgi qismida dastur tuzuvchi va taqriz beruvchilar to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan. Dasturni tuzishda meteorologiya va iqlimshunoslik ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

“Umumiy tabiiy geografiya” o‘quv dasturi OTM uchun me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo‘yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy o`quv dastur sifatida qo‘llaniladi hamda tegishli fan bo‘yicha ta’lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o‘tkazilishiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. Dotsent S.A.Xaydarov tomonidan tuzilgan ushbu o`quv dastur belgilangan tartib bo’yicha ishlab chiqligan va undan o‘quv jarayoniga foydalanish tavsiya etaman.

**“Geologiya va gidrometeorologiya”**
**kafedrasi mudiri PhD., dotsent:** **Meliyev B.A**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi dotsenti, PhD S.A. Xaydarov tomonidan 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Umumiy tabiiy geografiya" fanidan o`quv dasturlarga**

**TAQRIZ**

Mazkur o`quv dastur 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asos qilib olingan. "**Umumiy tabiiy geografiya**" o'quv kursi o'quv jarayonida meteorologiya va iqlimshunoslik doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta`limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. "O'rta Osiyo sinoptik jarayonlari" fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda kredit miqdori, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan. Dasturning oxirgi qismida dastur tuzuvchi va taqriz beruvchilar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Dasturni tuzishda meteorologiya va iqlimshunoslik ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

"Umumiy tabiiy geografiya" o'quv dasturi OTM uchun me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy o`quv dastur sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Dotsent S.A.Xaydarov tomonidan tuzilgan ushbu o`quv dastur belgilangan tartib bo'yicha ishlab chiqligan va undan o'quv jarayoniga foydalanish tavsiya etaman.

**"Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya"**
**kafedrasi mudiri:** **Usmonov M.**